


**TOSHKENT VILOYATI
TASHQI SAVDO AYLANMASI***2025- yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot*

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025- yil yanvar-noyabr oylarida Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 6 554,7 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 873,5 mln AQSH dollariga yoki 15,4 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)

TSAda eksport hajmi 1 910,6 mln AQSH dollarga (2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 7,2 % ga ko'paydi) va import hajmi 4 644,1 mln AQSH dollarga (19,1 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 2 733,5 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Toshkent viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln AQSH dollari)**

Davlatlar	2024-y.	2025-y.
Xitoy	1 655,8	2 058,0
Rossiya Federatsiyasi	1 536,5	1 525,0
Qozog'iston	687,9	725,8
Shveysariya	54,2	341,1
Turkiya	344,3	336,2
Qirg'iz Respublikasi	89,1	190,5
Tojikiston	94,0	171,0
Afg'oniston	81,7	144,2
Belarussiya	116,9	140,7
Germaniya	149,9	109,3
Singapur	79,9	61,3
Hindiston	54,9	59,9
Eron Islom Respublikasi	37,7	58,6
Belgiya	36,4	58,3
Braziliya	166,1	53,6
Italiya	85,0	48,3
Koreya Respublikasi	31,1	44,6
Indoneziya	15,2	29,7
Turkmaniston	18,9	29,2
Birlashgan Arab Amirliklari	27,1	28,4
Xitoy, Gonkong MMR	5,3	28,0
Polsha	18,7	27,7
Ozarbayjon	21,3	21,8
Ukraina	21,3	21,8
Niderlandiya	19,8	20,2
Fransiya	15,1	18,5
AQSH	17,6	17,6
Pokistan	9,2	14,1
Bolgariya	11,3	13,7
Chexiya	7,0	10,7
Avstriya	10,4	10,7

Toshkent viloyati jahonning 104 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (31,4 %), Rossiya Federatsiyasida (23,3 %), Qozog'istonda (11,1 %), Turkiya (5,1 %) va Qirg'iz Respublikasi da (2,9 %) qayd etilgan.


II. TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

2.1- jadval

Tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami eksport	1 782,6	1 910,6	102,8	107,2	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	236,6	301,5	104,9	127,5	13,3	15,8
Ichimliklar va tamaki	13,0	10,4	184,8	79,6	0,7	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	58,5	68,9	108,1	117,9	3,3	3,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	26,5	40,2	3,6 m.	151,9	1,5	2,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	9,0	7,1	4,0 m.	79,0	0,5	0,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	88,3	111,5	126,5	126,2	5,0	5,8
Sanoat tovarlari	1 065,8	987,5	98,8	92,7	59,8	51,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	68,6	71,9	120,4	104,6	3,8	3,8
Turli xil tayyor buyumlar	205,5	223,1	91,4	108,6	11,5	11,7
Boshqa tovarlar	-	12,8	-	-	-	0,6
Xizmatlar	10,8	75,7	172,7	6.9 m.	0,6	4,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 96,0 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (51,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (15,8 %), turli xil tayyor buyumlar (11,7 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (5,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (mln AQSH dollari)



2025- yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya Federatsiyasi (31,1 %), Xitoy (24,5 %), Turkiya (8,5 %), Qozog'iston (8,7 %), Afg'oniston (7,2 %), Tojikiston (3,0 %) va Qirg'iz Respublikasi (2,3 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 85,4 % ni tashkil etdi.

2025- yil yanvar-noyabr oylarida 286,5 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2024- yilning mos davriga nisbatan 165,7 % ga yoki 113,6 ming tonnaga ko'paydi.

Meva va sabzavotlar eksporti

2.2-jadval

	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollari	Hajmiga nisbatan, o'sish sur'ati
Jami	286 467,0	204 362,9	160,2
Meva va rezavorlar	62 051,7	57 925,7	160,9
Uzum	22 215,8	18 813,8	179,8
Quritilgan uzum	13 081,1	9 337,2	213,0
Shaftoli	9 107,2	7 342,8	105,2
Gilos	5 279,2	9 554,4	178,1
O'rik	6 689,3	4 595,7	137,8
Quritilgan olxo'ri	5 679,1	8 281,8	151,5
Sabzavotlar	69 736,4	25 704,7	2,5 m.
Piyoz	32 720,5	8 671,8	187,2
Karam	20 613,6	7 066,3	2,0 m.
Pomidor	10 478,2	7 323,3	9,5 m.
Sabzi	2 136,8	681,9	63,9
Bodiring	2 140,4	1 410,9	42,7 m.
Rediska	1 646,9	550,5	180,3
Tarvuz va qovun	21 873,0	4 574,4	7,4 m.
Yerong'oq va yong'oqlar	745,3	2 766,1	156,7
Mosh	38 973,4	36 003,2	91,4
Boshqa	93 087,2	77 388,8	196,4

2025- yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 174,6 mln AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2024- yilning mos davriga nisbatan 164,7 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 10,1 % ni tashkil etdi.

III. TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi 4 644,1 mln AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 19,1 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (25,1 %), sanoat mahsulotlari (13,9 %) va nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (13,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.


Toshkent viloyatining importi tarkibi

3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami import	3 898,6	4 644,1	109,0	119,1	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	671,7	561,6	114,3	83,6	17,2	12,1
Ichimliklar va tamaki	8,0	2,8	154,2	35,2	0,2	0,1
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idan tashqari	506,4	641,7	97,7	126,7	13,0	13,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	338,1	424,8	148,9	125,6	8,7	9,1
Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar	89,0	134,8	101,4	151,5	2,3	2,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	326,3	428,4	91,4	131,3	8,4	9,2
Sanoat tovarlari	699,9	646,4	118,8	92,4	18,0	13,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1 106,6	1 165,6	99,4	105,3	28,4	25,1
Turli xil tayyor buyumlar	69,7	97,1	85,6	139,3	1,8	2,1
Boshqa tovarlar	46,3	512,5	2,3 m.	11,0 m.	1,1	11,1
Xizmatlar	36,6	28,4	6,6 m.	77,5	0,9	0,6

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 753,7 mln AQSH dollariga ko'paydi va 4 615,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 28,4 mln AQSH dollariga yetdi.

**Toshkent viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari
(mln AQSH dollari)**



2025- yil yanvar-noyabr oylarida Toshkent viloyati 93 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Xitoy (34,2 %), Rossiya Federatsiyasi (20,2 %), Qozog'iston (12,0 %), Turkiya (3,7 %), Shvetsariya (7,2 %), Belarussiya (2,6 %) va Qirg'iz Respublikasi (3,2 %) jami importning 83,1 % ni tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 28,4 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 0,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 77,5 % ni tashkil qildi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

Chop etishga masul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Ijrochi: M.Mirzokirov
Tel: +998 71 203 45 00 (45 41)

Manzil: Toshkent viloyati
Nurafshon shahar,
Toshkent yo'li ko'chasi, 90